XALQ DEPUTATLARI NARPAY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 4-yanvar VII-3-3-7-98-K/25 Narpay tumani

Narpay tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/10-38/3526-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024 yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qaroriga muvofiq, Narpay tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari 132820,8 mln.so‘m va xarajatlari esa 147857,2 mln.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 15036,4 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Narpay tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1194,0 mln.so‘m etib belgilanganligi hamda tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlar va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1935,2 mln.so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan

nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Boliyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Sadriddinov), tuman soliq inspeksiyasi (Z.Turdiyev) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Namazov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Boliyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi SAMADOV SHUKRAT JO‘RAQULOVICH

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 4-yanvardagi
VII-3-3-7-98-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Narpay tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**132 820 800,0**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	9 860 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	49 983 200,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3 408 000,0
4	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	11 760 000,0
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 347 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 800 000,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 909 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23 455 000,0
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	44 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 136 600,0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	118 000,0

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 4-yanvardagi
VII-3-3-7-98-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	2025-yil
Xarajatlari miqdori, jami		**147 857 167,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	46 190 795,0
	shundan:	
	“Mening maktabim”	*4 213 090,0*
2	Madaniyat bo‘limi	11 331 747,0
3	Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi	6 215 566,0
4	Sport bo‘limi	6 960 000,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 829 195,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 036 199,0
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	2 395 853,0
8	Hokimiyat	50 696 122,0
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paket”	*55 125*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*34 564 743*
	Mahalla byudjeti jamg‘armasi mablag‘lari	*2 397 000*
	Zaxira jamg‘armasi	*1 935 249*
9	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	696 007,0
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	*167 187*
	Axborot-kutubxona markazi	*528 820*
10	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	16 505 683

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 4-yanvardagi
VII-3-3-7-98-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

(so‘mda)

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun
1	Alisher Navoiy MFY	1,58	60 412 880,0
2	Amir Temur MFY	1,58	60 412 880,0
3	Ahillik MFY	1,36	52 000 960,0
4	Barkamol MFY	1,32	50 471 520,0
5	Baxt MFY	1,58	60 412 880,0
6	Beklar MFY	1,12	42 824 320,0
7	Birlik MFY	1,12	42 824 320,0
8	Bolg‘ali MFY	1,32	50 471 520,0
9	Bo‘ston MFY	0,99	37 853 640,0
10	Guliston MFY	1,32	50 471 520,0
11	Dedan MFY	1,12	42 824 320,0
12	Do‘stlik MFY	1,12	42 824 320,0
13	Zirabuloq MFY	1,58	60 412 880,0
14	Iymon MFY	1,12	42 824 320,0
15	Ipak yo‘li MFY	1,12	42 824 320,0
16	Islom shoir MFY	1,58	60 412 880,0
17	Islomobod MFY	1,58	60 412 880,0
18	Istiqlol MFY	1,12	42 824 320,0
19	Qoziyoqli MFY	1,12	42 824 320,0
20	Qozikent MFY	1,12	42 824 320,0
21	Ko‘k ota MFY	1,12	42 824 320,0
22	Mang‘it MFY	1,12	42 824 320,0

23	Muqimiy MFY	1,58	60 412 880,0
24	Mustaqillik MFY	1,12	42 824 320,0
25	Mushkent MFY	1,12	42 824 320,0
26	Navro‘z MFY	1,12	42 824 320,0
27	Narpay MFY	1,32	50 471 520,0
28	Nog‘araxona MFY	1,58	60 412 880,0
29	Nug‘ay MFY	1,12	42 824 320,0
30	Obihayot MFY	1,12	42 824 320,0
31	Oq oltin MFY	1,12	42 824 320,0
32	Oqtosh MFY	1,58	60 412 880,0
33	Olti o‘g‘il MFY	1,12	42 824 320,0
34	Ravot olchin MFY	1,12	42 824 320,0
35	Salovat MFY	1,58	60 412 880,0
36	Sarbozor MFY	1,58	60 412 880,0
37	Sohibkor MFY	0,99	37 853 640,0
38	Tepa MFY	1,58	60 412 880,0
39	Tepaqo‘rgon MFY	1,12	42 824 320,0
40	Tinchlik MFY	1,58	60 412 880,0
41	Tortuvli MFY	1,12	42 824 320,0
42	Totkent MFY	1,12	42 824 320,0
43	Toshko‘prik MFY	1,12	42 824 320,0
44	Turon MFY	1,12	42 824 320,0
45	O‘zbekiston MFY	1,12	42 824 320,0
46	O‘zbekkenti MFY	1,12	42 824 320,0
47	Umid MFY	1,12	42 824 320,0
48	Farovon MFY	1,58	60 412 880,0
49	Haqiqat MFY	1,12	42 824 320,0
50	Xalqabod MFY	1,58	60 412 880,0
51	Xo‘jakarzon MFY	1,12	42 824 320,0
52	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY	1,12	42 824 320,0
53	Chaykal MFY	1,12	42 824 320,0
54	Charxin MFY	0,99	37 853 640,0
55	Chorbog‘ MFY	1,12	42 824 320,0
56	Yangiariq MFY	1,12	42 824 320,0
57	Yangiobod MFY	1,58	60 412 880,0

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 4-yanvardagi
VII-3-3-7-98-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

(so‘mda)

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun
1	Alisher Navoiy MFY	1,37	361,8
2	Amir Temur MFY	1,37	361,8
3	Ahillik MFY	1,24	327,5
4	Barkamol MFY	1,24	327,5
5	Baxt MFY	1,37	361,8
6	Beklar MFY	1,24	327,5
7	Birlik MFY	1,1	290,5
8	Bolg‘ali MFY	1,24	327,5
9	Bo‘ston MFY	0,96	253,5
10	Guliston MFY	1,1	290,5
11	Dedan MFY	1,24	327,5
12	Do‘stlik MFY	1,24	327,5
13	Zirabuloq MFY	1,37	361,8
14	Iymon MFY	1,24	327,5
15	Ipak yo‘li MFY	1,24	327,5
16	Islom shoir MFY	1,37	361,8
17	Islomobod MFY	1,37	361,8
18	Istiqlol MFY	1,24	327,5
19	Qoziyoqli MFY	1,24	327,5
20	Qozikent MFY	1,24	327,5

21	Ko‘k ota MFY	1,24	327,5
22	Mang‘it MFY	1,24	327,5
23	Muqimiy MFY	1,24	327,5
24	Mustaqillik MFY	1,24	327,5
25	Mushkent MFY	1,24	327,5
26	Navro‘z MFY	1,24	327,5
27	Narpay MFY	1,24	327,5
28	Nog‘araxona MFY	1,37	361,8
29	Nug‘ay MFY	1,24	327,5
30	Obihayot MFY	1,24	327,5
31	Oq oltin MFY	1,24	327,5
32	Oqtosh MFY	1,37	361,8
33	Olti o‘g‘il MFY	1,24	327,5
34	Ravot olchin MFY	1,24	327,5
35	Salovat MFY	1,37	361,8
36	Sarbozor MFY	1,37	361,8
37	Sohibkor MFY	1,1	290,5
38	Tepa MFY	1,24	327,5
39	Tepaqo‘rgon MFY	1,24	327,5
40	Tinchlik MFY	1,37	361,8
41	Tortuvli MFY	1,24	327,5
42	Totkent MFY	1,24	327,5
43	Toshko‘prik MFY	1,24	327,5
44	Turon MFY	1,24	327,5
45	O‘zbekiston MFY	1,24	327,5
46	O‘zbekkenti MFY	1,24	327,5
47	Umid MFY	1,24	327,5
48	Farovon MFY	1,37	361,8
49	Haqiqat MFY	1,24	327,5
50	Xalqabod MFY	1,37	361,8
51	Xo‘jakarzon MFY	1,1	290,5
52	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY	1,24	327,5
53	Chaykal MFY	1,24	327,5
54	Charxin MFY	1,1	290,5
55	Chorbog‘ MFY	1,24	327,5

56	Yangiariq MFY	1,24	327,5
57	Yangiobod MFY	1,37	361,8